



BOLALAR SHE'RIYATIDA TAMSIL VA TALQIN

Nuritdinova Shahnoz Sadridinovna,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada bolalar she'riyatining muhim tamoyillari, janriy va Badiiy xususiyatlari Hamza Imonberdiyev she'rlirida misolida asoslab berilgan. Shuningdek, tamsiliy obrazlar, erk va ozodlik motivlarining o'ziga xos ifodasi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: motiv, tamsil, erk, syujet, obraz, badiiy detal, tamoyil, she'riyat, G'oya, mavzu, voqeaband, janr, talqin.

Bolalar adabiyoti hamma zamonda ham jamiyatning kelajagini yaratuvchi qudratli kuch sanaladi. Turli xalqlar farzandlarning erk sevar, mard, komil insonlar bo'lib yetishuvi uchun ma'suliyatni unitishmagan. Ayniqsa, bolalar ijodkori yosh kitobxon oldida ezgulik, insoniylik ildizi otishiga xizmat qilib kelayotgani e'tirofga sazovordir.

Jumladan, she'riyat bolalar uchun beg'ubor bolalik, mehribon va talabchan murabbiydir. She'riyatga oshno qalblar go'zallikni his qiladi, zavq oladi, bunday qalbning o'zi ham go'zal bo'ladi. Ana shu ma'noda she'r hayotga yendigina qadam qo'yib kelayotgan yosh avlodning pok qalbini go'zallik nuri bilan munavvar qiladi, bu beg'ubor qalblarga ezgulik urug'ini sochadi, ularning porloq kelajagini yaratuvchi tom ma'nodagi go'zal insonlar qilib tarbiyalashdek ma'suliyatli ishga o'zinig xolis hissasini qo'shadi.

H.Imonberdiyev bolalar she'riyatini yani obraz va motiv, tamsillar bilan boyitgan shoir deyish mumkin. Uning ijodida davr voqeligi, insonning tafakkur yevrilishi natijasida yuzaga kelgan erk va ozodlik motivi, o'z yurtining bahodiri, egasi bo'lish orzusi ilgari surilgan tamsiliy obrazlar yetakchilik qiladi. Masalan, alla janri tabiatan bolani orom oldirish va ayni paytda onaning ezgu niyatlari yo'g'rilgan, monoton ohangda kuylanuvchi onalar qo'shig'idir. H.Imonberdiyevning "Alla"si esa bo'lakcha ma'no mohiyatan kasb etadi. Unda qo'y, chumchuq, odam va ona burgutning bolasiga qanday alla aytishi ifodalangan. Natijada, qo'y qo'zichog'ini bo'ridan, chumchuq polaponini ilondan, odam o'z bolasini olabo'jidan qo'rqitib allalagani ayonlashadi. Shoir o'quvchi diqqatini Burgut allasiga qaratishi bejiz yemas :

Ona burgut allalar:
– uxla, kuchga to'lib o's.
Ushbu tog'-tosh osmonnig
Hukmdori bo'lib o's!

Pisand etmay xatarni
Shundanmi polaponi,
Tushlarida charx urar
To'ldirib keng samoni.



Nazarimizda, ushbu kichik she'r ulkan ma'naviy-ma'rifiy ahamiyat kasb etadi. Chunki ona burgut polaponi qalbiga "ushbu, tog'-tosh osmonnig hukmdori bo'lib o'sishni"ni go'dakligidan alla bilan singdirayotganligi sabali burgutcha hatto tushida ham keng samoni to'ldirib charx uradi.

Olabo'ji ko'pincha xalq ertaklarida keladigan haybatli, qo'rqinchli afsonaviy maxluq bo'lib, haqiqatan ham momolarimiz sho'x-shaddot bolalarni shu bilan qo'rqitishgan. Shu sababli qo'rqinchli, vahimali aytilsa uning na maxluq, na hayvon ekani narsaligini hech kim bilmaydi. Ana shu narsa bilan qo'rqitish insonning bola chog'larida qo'rqqolikka, mutelikka o'rgatishini shoir aytishga jur'at topadi. Ona burgut allasida shu bois asli insonga xos bo'lishi lozim mardlik, jasurlik, bola tarbiyalashdanoq o'z yurtiga hukmdorlik g'oyasini singdirishga ishora qilingan.

H.Imonberdiyevning bir she'rida Olabo'ji haqida so'z boradi. Endi bunda yosh lirik qahramon uning nimaligiga qiziqib qoladi:

“Olabo'ji” deganlari
Tegib ketdi jonimga
Olabo'ji botir bo'lsa,
Qani kelsin yonimga.
Sal to'polon qilar bo'lsam,
Qo'rqitar nomin aytib,
Qorong'uda turar yemish
Ko'zlarin u chaqchaytib

Haqiqatan, bolalar hamisha qorug'ulikdan cho'chidi, ko'zlariga har xil narsalar vahimali ko'rinadi. Shundan foydalangan kattalar, bolalar chiqmasin, hech qayoqqa bormasin deb Olabo'jini o'ylab topishgan bo'lsa kerak. Shoir ham lirik qahramonni shu sirni bolalarga ochmoqchi bo'ladi. Rost, avvaliga qorong'uda buvisining dorga yozilgan oq ko'ylagi Olabo'ji bo'lib ko'rinib “buvi buvi buvijon” deb duduqlanadi, gaplari poyma-poy chiqadi. Buvisi ham nevaraning qo'rqib ketgani uchun “–Hoy, bundoq ranginggga boq, nima olabo'ji seni yeb qo'yarmida qo'rqqoq?”,– deb tanbeh bergach u bilan uchrashishga ahd qiladi va yuzma-yuz uchrashishga qat'iy qarorga boradi: “Qachongacha qul bo'laman, Olabo'ji ko'chaga”,-deya qorong'ulikka otiladi. Va “Olabo'ji quruq vahima, sendan qo'rqar faqat laqma”,-dega xulosaga keladi.

She'rda ilgari surilgan g'oya, motivdan ayonlashadiki, qo'rquv qullikka, mutelikka yetaklaydi. Olabo'ji tamsiliy obraz. Uni o'tmishdagi mustabit tuzumga qiyoslash mumkin. Lirik qahramonning uni yengishi istiqlool, erkinlik ramzi. Aynan navqiron avlodlarning jasorati tufayli u qo'lga kiritilishiga ishora ham bor. Bu she'rlarning aksariyati istiqloolgacha, yoki istiqlool arafasida yozilgani nazarda tutilsa shoir she'rlaridagi ramziy obraz va detallar, motivlar tafakkur yevrilishiga zamin tayorlagani seziladi.





Bundan tashqari H.Imonberdiyev ijodida Burgut obrazi ham ko‘p takrorlanadi. Bu tamsiliy obraz ham shoir g‘oyasining o‘ziga xos ifodasidir. “Sinov” shu ma’noda syujetli, voqeband she’r. Shoir ona Burgut obrazini gavdalantirishda uning ichki olami, onalik instinktini ham keng yoritib berishga harakat qiladi:

Hayajonda ona Burgut
Iztirobda yonar burgut
Ne uchundir ko‘p bezovta
Quyi boqar ming azobda

Shunday bo‘lsa-da, ona Burgut polaponini baland qoyadan uchirma qilishga, uni sinovdan o‘tkazishga qaror qilib, shahd bilan uyasiga qo‘nib, olislarga ko‘zin tikib bolasiga shunday dedi:

– Qushcha senga qanot berdim,
Yurak berdim, sabot berdim,
To‘yding chog‘i uchish zavqin
Ko‘k toqini quchish zavqin.
Mag‘rur tutgin qush qaddingni,
Sinab ko‘rgin omadingni

O‘chib tushar polaponi,
Balki unga shirin joni:
- Qanotimni ko‘ring yozib,
Ona hali ular nozik,
Yerda sinang o‘tinchim shu.
–Kaltakesak ilinji bu!
Gapim tamom, qani bo‘lgin,
O‘lsang, **burgut** bo‘lib qolgini...

Shunday deb bolasi, yolg‘iz jigarporasini panjasiga changallab, balandga qarab uchadi, bir nuqtaga aylanadi, xuddi shirin jonini sug‘urganday polaponini pastga tashlab yuboradi. Qushcha es-hushini yo‘qotganday pastga qulay boshlaydi, shu choq shamol ilib ketadi, pastda ajalqoya, ona Burgut ham simobday qalqib bolasining yordamga zor nolasini eshitib, jiq-jiq terga botadi, o‘zini pastga otadi, va shu orada burgutchasi ham o‘zini o‘nglab olib, qanotchasini qoqa boshlaydi va birdan yengil uchib ko‘k toqini quchishga otlanadi...

She’rning falsafiyligi shundaki, insonning ko‘pgina qusurlari yuraksizlik, qat’iyatsizlikdan ekanligi anglashiladi. Ona Burgutning polaponiga bo‘lgan talabchanligi, qat’iyati ularni yuksaklikka yashashini ta’minlangan. Shoir burgutlarning aynan baland qoyalarda yashashi, parvozi ham boshqa qushlarga nisbatan juda yuksakligi haqiqatidan foydalanib, yosh kitobxonni ma’naviy yuksaklikka, jasurlikka undaydi. Aslida bu tamsil zamirida ham shoirning o‘zi va so‘zi turadi.





Binobarin, H.Imonberdiyev she'rlarida fikr ustuvor, g'oya dolzarb, tasvir hayotiy. Uning qator ertak-dostonlarida esa bahodirlik, mardlik motivlari kuylanadi. Shoir ijodida istiqlool g'oyalari ko'zga tashlanadi. Sor burgutning o'z polaponini uchishga o'rgatishda baland qoyalardan pastga otib yuborishi, yiqilay deganda ushlab olishi misolida xalq farzandlarini dovyuralikka chorlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Imonberdiyev H. G'aroyibkent hangomalari. – Toshkent: Cho'lpon, 1994.
- 2.Imonberdiyev H. Lofchilar aldoqchilar. Toshkent: Cho'lpon, 1991.
- 3.Nuritdinova Sh.S. "Hamza Imonberdiyev she'riyatida ramziylik va erk motivi ifodasi" Buxdu ilmiy axbaroti jurnali. OAK. 2023-yil 3-son 210-bet [Nuritdinova Sh.S. Ilmiy axboroti maq. 3 2023.pdf](#) .
- 4.Nuritdinova Sh.S. "Bolalar she'riyatida ekologik tarbiya: tabiatning jamiyatga munosabati ifodasi". Buxdu ilmiy axbaroti jurnali. OAK. 2023-yil 11-son 173-bet [Nuritdinova Sh.S. Ilmiy axboroti maq. 11 2023.pdf](#)

